

DAVLAT XARIDLARI JARAYONLARIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI TAMINLASHNING ZARURIYATI

Turdiqulov Tohirjon G'anijon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:05.09.2025

Revised: 06.09.2025

Accepted:07.09.2025

KALIT SO'ZLAR:

*davlat xaridlari,
shaffovlik, elektron
savdo, tender, aukcion,
raqobatli elektron savdo,
raqobatsiz savdo..*

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligi e'lon qilinganidan so'ng bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bozor iqtisodiyoti islohotlari, xususan davlat xaridini boshqarish tizimining shakllanishi, uning huquqiy va tashkiliy asoslari yoritilgan. Davlat xaridi - bu davlat ehtiyojlari uchun tovarlar, xizmatlar va ishlarni davlat mablag'lari hisobidan xarid qilish bo'lib, u iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim moliyaviy mexanizm sifatida ko'riladi. Matnda davlat xaridining iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirishdagi roli, davlat xarajatlarini samarali boshqarishdagi ahamiyati, xalqaro tajribalardan foydalanish zaruriyati hamda davlat xaridining YAIMga ta'siri haqida so'z boradi. Shuningdek, davlat xaridi jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar (buyurtmachilar, nazorat organlari, yetkazib beruvchilar va boshqa ko'makchi tashkilotlar) faoliyati, xarid turlari (tovarlar, ishlar va xizmatlar) va ularni qonuniy tartibga solish masalalari ham keng yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda.

Davlat tizimi va boshqaruv sohasidagi islohotlar natijasida xarajatlarni boshqarishning yangi huquqiy tizimi shakllantirilmogda. Bu o'z navbatida, davlat mablag'larini sarflanishi samaradorligini ta'minlashga, uning zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini amalda tatbiq etishga imkon beradi. Xalqaro miqyosda yuzaga kelgan yangi iqtisodiy vaziyat, davlat mablag'lari hisobidan xarajatlarni amalga oshirishda hukumatlar oldiga qo'yilgan vazifalarning muhimligini oshirmogda.

Ma'lumki, davlat o'z vazifalarini bajarish jarayonida bir qator xarajatlar qilishi zarur. Bu xarajatlar, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun turli tarmoqlarga investitsiya qilishga, aholining turmush darajasini ko'tarishga, hamda ijtimoiy vazifalarni bajarishga qaratilgan, davlatni boshqarish, mudofaani ta'minlash kabi aniq maqsadlarga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan xarajatlardan iborat bo'ladi. Umumdavlat xarajatlari, asosan, davlat byudjeti va davlatning boshqa markazlashtirilgan fondlari orqali moliyalashtiriladi.

Davlat byudjetining iqtisodiy tushunchasi, umumjamiyat miqyosida markazlashgan, davlat ishtirokida to'plangan va sarflanadigan moliyaviy resurslarni anglatadi.

Davlat xarajatlarining muhim tarkibiy qismi sifatida davlat xaridi alohida o'ringa ega.

Tovar va xizmatlarni xarid etish dunyo rivojlanish amaliyotida muhim o'rin egallaydi, fondlar xamda investitsiyani samarali o'zlashtirishga yo'naltirilgan uzluksiz jarayon hisoblanadi. O'zbek tilidagi «xarid» termini (inglizchada, procurement - prokyurment) «sotib olish» ma'nosi bilan bir ma'noda ishlatilib, zamonaviy tushunchalarda mahsulotlarni, bajarilgan ishlarni yoki ko'rsatilgan xizmatlarni ma'lum xaq evaziga olish demakdir (inglizchada, procurement of goods, works and services).

Davlat xaridi - bu davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni qisman yoki to'liq davlat mablag'lari evaziga sotib olishdir (U.Burxanov. Gosudarstvenniye zakupki, http://el.tfi.iiz/pdf/gos_zakup_ru.pdf).

Davlat xaridini boshqarishga tizimli yondoshuv to'g'riroq bo'ladi. Shunday ekan, davlat ehtiyojlari uchun xaridni rejalashtirish va amalga oshirish hamda nazorat etish bilan bog'liq barcha jarayonlar davlat xaridi tizimini yuzaga keltiradi.

Davlat xaridi davlat infratuzilmasini moddiy-moliyaviy ta'minlash uchun amalga oshiriladi. Davlat infratuzilmasini umumiy tarzda ikkita yirik tarkibiy qismga ajratish mumkin:

iqtisodiy infratuzilma (transport, maishiy xizmatlar, kundalik iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun birlamchi bo'lgan infratuzilmalar);

ijtimoiy infratuzilma (maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, yoki boshqacha aytganda, jamiyat kundalik xayoti uchun birlamchi infratuzilmalar). Ijtimoiy sohalarga Davlat xaridini

amalgam oshirish zarurati umumjamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi. O'zbekistonda ijtimoiy sohalarga investitsiyalar va davlat xaridi mavjud qonuniy-meyoriy aktlar orqali tartibga solinadi.

Davlat moliyasini boshqarishni isloh etish bo'yicha amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning tarkibiy qismi sifatida, davlat xaridini tashkil etishni tubdan isloh etish, uni tartibga soluvchi huquqiy bazani shakllantirish, davlat xarajatlari samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Davlat xaridini boshqarish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi elementlardan foydalanish samarali yo'nalish hisoblanadi: davlat xaridini boshqarish yuzasidan ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish; davlat xaridi siyosatini davlatning iqtisodiy siyosati maqsadlariga muvofiqlashtirish; davlat xaridi sohasidagi amalga oshirilayotgan siyosatni monitoring va baholashni tatbiq etish.

Davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish mexanizmining samarali bo'lishi, ko'p jihatdan, davlat xaridi uchun qaror qabul qilayotgan davlat xizmatchilarining kvalifikatsiya darajasi, professional tayyorgarligi va haqqoniyligiga bog'liq. Ko'pgina davlatlarda davlat xaridi bilan shug'ullanadigan xodimlarni tayyorlash va ular malakasini oshirish bevosita hukumatning zimmasiga yuklatilgan vazifasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi xukumatidan yuqoridagi ko'rsatilgan yo'nalishlardagi muammolarni bartaraf etishga katta e'tibor qaratilmoqda va davlat xaridini amalga oshirishda ishtirok etuvchi boshqa subektlar ishtirokida, davlat xaridi jarayonining mexanizmlarini xamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha faol ish olib borilmoqda. Xususan, davlat xaridi tizimini boshqarish bo'yicha tizimli yondoshuvga bo'lgan talab hamda davlat xaridining iqtisodiyotning ayrim soxalariga bulgan ta'sir etuvchi mexanizm sifatida foydalanish strategiyalari shakllantirilmoqda.

O'zbekistonda davlat xaridining xajmi YAIMning 11 foizini tashkil etgani holda, uni iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Davlat xaridi YAIMni shakllanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi (O problemax upravleniya gosudarstvennimi zakupkami v Respublike Uzbekistan i napravleniyax sovershenstvovaniY. Analiticheskaya zapiska. UNDP. Tashkent, 2008.).

Ushbuni inobatga olib davlat xaridini amalga oshirish sohasida olib borilgan oqilona siyosat makroiqtisodiy siyosatga jiddiy ta'sir etuvchi instrument sifatida yuzaga chiqadi:

davlat xaridini iqtisodiyotning ma'lum soxalarida amalga oshirish orqali, o'sha soxalar rivojiga va aholi bandligi hamda daromadlari darajasiga ijobiy ta'sir etadi;

ochiq tenderlarni e'lon qilish orqali raqobatni rivojlantirishga ta'sir etadi;

sotib olinayotgan tovarlarning sifat talabini xalqaro andoza talablarga tenglashtirish orqali, milliy ishlab chikaruvchi korxonalar mahsulot sifatini oshirishga ta'sir etishi mumkin;

kichik biznes vakillar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarni sotib olishda tanlov jarayonlarini joriy etish orqali, kichik biznesni va raqobatni rivojlantirishga ta'sir etish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar faqatgina mamlakat darajasida davlat xaridini boshqarishning samarali mexanizmlari mavjud bo'lgan sharoitda, ya'ni xaridni rejalashtirish va uning iqtisodiyotga ta'sirini baholash orqali erishish mumkin.

O'zbekiston hukumati davlat xaridi instrumentidan turli ko'rinishlarda foydalanib kelmoqda. Masalan, o'rta maxsus ta'lim tizimini islohotlar nafaqat o'quv binolari sonini ortishiga olib keldi, balki respublikada kapital qurilish sohasining rivojiga katta turtki berdi. 2000 yillar boshida kurilish kompaniyalari nochor axvolda bo'lgan bo'lishsa, xozir ular qurilish-montaj va loyihalarning turli tumanligi va sifat bo'yicha xorijiy kompaniyalar bilan raqobat qilishmoqda. Shuning bilan bir vaqtda, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallarining turlari ham kengaydi. Kapital kurilish soxasiga davlat buyurtmasi aholi bandligi oshirishda ham muhim rol o'ynadi. Xuddi shunday misolni mebel ishlab chiqarish sanoatiga nisbatan xam keltirib o'tish mumkin (U.Burxanov. Gosudarstvenniye zakupki, http://el.tfi.uz/pdf/gos_zakup_ru.pdf).

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridining subektlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

Davlat buyurtmachilari: byudjet mablag'larini oluvchilar va byudjet xamda byudjetdan tashqari fondlar mablag'larini taqsimlovchilar:

byudjet mablag'lari oluvchi tashkilotlar;

byudjetdan tashqari maqsadli fondlarning ijroiyy direksiyalari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar mahkamasi, viloyatlar hokimligi va Toshkent shahar hokimligi qoshidagi yagona buyurtmachi xizmati;

hukumat kafolati ostida xalkaro grant va qarz olgan xamda ushbu mablag'lar hisobidan davlat xaridini amalga oshirayotgan tashkilotlar;

davlat mulki ishtirokida faoliyat yuritayotgan xo'jalik subektlari.

Tashqi nazorat organlari (Uzbekiston Respublikasi Hisob palatasi);

Xukumat (Uzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi);

Davlat va xo'jalik boshqaruv organlari (nazoratni tashkil etuvchi organlar);

Moliya vazirligi;

Tashki iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi;

Davarxitekqurilish;

Tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar: tovarlar (xizmatlar, ishlar) yetkazib beruvchi xo'jalik subektlari.

Xaridni tashkil etish jarayoniga ko'maklashuvchi tashkilotlar:

xizmat ko'rsatuvchi banklar;

transport-ekspeditorlik kompaniyalari;

maslahat va ekspertiza hamda boshqa tashkilotlar;

mavjud konunchilik asosida ekspert baholash xizmatini amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar.

Davlat xaridining predmeti bo'lib, davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovarlar, bajariladigan ishlar va xizmatlar hisoblanadi.

Yevropa mamlakatlarida davlat xaridini tovarlar, ishlar va xizmatlarga ajratish bo'yicha YUNSTRAL tomonidan taklif etilgan tasniflashga asosan:

Tovarlarga - xom-ashyo, buyum, uskunalar, qattiq, suyuq va gaz holatdagi predmetlar, elektr energiyasi, shuningdek, tovarlarni yetkazib berish bo'yicha xizmatlar qiymati (agar u tovarning bahosidan yuqori bo'lmasa) kiritiladi.

Ishlar deganda - qurilish, ta'mirlash, binoni, inshoot va obyektlarni buzish yoki ta'mirlash, bilan bog'liq faoliyat turlari, shuningdek, guruntlarni qazish, yangidan qurish, jihozlash, montaj uchun kurilish maydonlarini tayyorlash va boshqa qurilish ishlari (masalan, geodeziya va burg'alash bo'yicha ishlar, aero- va sun'iy yo'ldosh orqali sur'atga olish, seysmik tadqiqotlar o'tkazish (agar ushbu xizmatlar bahosi asosiy ish bahosidan yuqori bo'lmasa) tushuniladi.

Xizmatlarga esa - tovar va ishlarga taalluqli bo'lmagan barcha xarid predmeti tushuniladi.

Xaridning turli kategoriyalari buyicha xaridni konuniy tartibga solish (golibni aniklashda tender shartlari va usullaridan foydalanish) turlicha buladi

Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida raqobatning kuchayishi, davlat mablag'laridan oqilona foydalanish zaruratining dolzarbligi va xarid jarayonlarini boshqarish sohasida innovatsion usullarning yuzaga chiqishi bilan, davlat xaridi tizimini boshqarish xar bir mamlakat hukumatlari oldida muhim masala bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomicheskix resheniy. /usheb. / O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /usheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Mers S.S. Principles of corporate finance. McGraw-Hill, 2003.
4. Kumri Nomozova. Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.
6. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsya ushenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogicheskie texnologii. 2025. – s. 581-587.
7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq risklarni sug'urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomicheskoe razvitiye i analiz, 2024. - s. 338-345.
9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug'urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.
10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.
11. Qumri Nomozova. O'zbekistonda tadbirkorlik tavakkalshiliklari sug'urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.
12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: "Iqtisod- moliya", 2013. – 128 b.
13. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliy. Darslik. – T.: "Sharq", 2010. – 804 b.
14. Van Xorn D.K. Osnovi upravleniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.
15. Publis Finance: A Contemporary Application of Theory to Policy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Sengage Learning
16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati. – T.: "Akademnashr", 2011. – 472 b.